

Eldor TEMIROV,

O'zR FA Botanika instituti huzuridagi Toshkent Botanika bog'i katta ilmiy xodimi, PhD

E-mail: eldor.temirov.87@mail.ru

Dilovar HAMRAYEVA,

O'zR FA Botanika instituti huzuridagi Toshkent Botanika bog'i kichik ilmiy xodimi.

E-mail:khamrayeva2016@mail.ru

ToshDAU dotsenti, q.x.f.d (PhD) M.Z.Xolmyrotov taqrizi asosida

ASSESSMENT OF THE DECORATIVE PROPERTIES OF INTRODUCED PLANTS

Annotation

The types of shrubs recommended for landscaping must be biologically resistant to urban conditions, i.e. to a smoky, gas-filled and dusty environment, meet architectural requirements and have a high picturesque view. This article provides information on assessing the decorative properties of highly ornamental shrub species recommended for landscaping in the Tashkent city.

Key words: Tashkent Botanical Garden, introduction, success of introduction, ornamental shrub, scenic assessment.

ОЦЕНКА ДЕКОРАТИВНОСТИ ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ РАСТЕНИЙ

Аннотация

Виды кустарников, рекомендуемые для озеленения, должны быть биологически устойчивы к городским условиям, т.е. к дымно-загазованной и запыленной среде, отвечать архитектурным требованиям и иметь высокий живописный вид. В данной статье представлена информация по оценке декоративных свойств высокодекоративных видов кустарников, рекомендуемых для озеленения в условиях города Ташкента.

Ключевые слова: Ташкентский ботанический сад, интродукция, успешность интродукции, декоративный кустарник, живописная оценка.

INTRODUKSIYA QILINGAN O'SIMLIKLARNI MANZARALILIGINI BAHOLASH

Annotatsiya

Ko'kalamzorlashtirish maqsadida tavsiya etilayotgan buta turlari shahar sharoitiga ya'ni tutunli-gazli va changli muhitiga biologik chidamli bo'lishi va arxitekturaviy talablarga javob berishi bilan birgalikda yuqori manzarali ko'rinishga ega bo'lishi lozim. Ushbu maqolada Toshkent shahri sharoitida ko' kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilayotgan yuqori manzarali buta turlarini manzaralilik xususiyatlarini baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent Botanika bog'i, introduksiya, introduksiya muvafaqqiyati, manzarali buta, manzaralilikni baholash.

Kirish. Bugun mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida yirik hajmdagi qurilish ishlari va obodonlashtirish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Demak, bunday ob'ektlar atrofida zamon talablariga mos keladigan ko'kalamzorlashtirish va landshaft dizayni ishlarini amalga oshirish kerak bo'ladi. Buning uchun mahalliy sharoitga mos keladigan va quruq iqlim sharoitlarida bemalol o'sib rivojlanadigan, yoshligidan shakl berib parvarishlangan manzarali daraxt va buta ko'chatlarini yetishtirish kerak bo'ladi. Daraxt-buta o'simliklari nafaqat xomashyo va turli mahsulotlar manbai, balki tabiiy muhitni yaxshilovchi asosiy omillardan biridir. O'simlik dunyosining hayotiy faoliyati iqlimga o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni havodagi SO₂ va boshqa zararli gazlar hamda tutunni o'zlashtirib zararsizlantiradi, shahar havosidagi chang miqdorini kamaytiradi, shovqinni pasaytiradi, o'simliklar tomonidan ajratilgan fitontsidlar havodagi kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalarni keskin kamaytiradi. Doim yashil va gullovchi manzarali butalar ko'kalamzorlashtirishning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi [1].

Tadqiqot ob'ektlari Tadqiqot ob'ektlari sifatida manzarali istiqbolli hisoblangan Toshkent Botanika bog'iga introduksiya qilinayotgan Adoxaceae, Caprifoliaceae, Hydrangeaceae, Malvaceae va Rosaceae oilalariga mansub 9 ta turkumdan iborat 6 ta tur hamda 6 ta formalar – *Cotoneaster adpressus* Bois., *Cotoneaster horizontalis* Decne, *Cotoneaster dammeri* C.K.Schneid., *Spiraea japonica* L., *Symphoricarpos dorenbosa* Krüssm., *Hydrangea macrophylla* Thunb, *Viburnum tinus* f. stricta, *Weigela florida* f. bristol rubu, *Deutzia scabra* f. plena, *Hibiscus syriacus* f. "Duc de Brabant", *Spiraea prunifolia* f. plena, *Physocarpus opulifolius* f. diabolus hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavsumiy rivojlanish davrida yog'ochli o'simliklar turli xil manzarali xususiyatlarni namoyon qiladi, bu esa diqqatni o'ziga tortadi va insonlarda o'ziga xos estetik tuyg'u yaratadi, shuning uchun ularning manzaraliligini ma'lum guruhlariga bo'lish va baholash mumkin. Manzarali o'simliklarni obodonlashtirish obyektlariga joriy etish va tanlash jarayonida ulardan foydalanish uchun tavsiya qilishda manzaralilikni baholash zarurati paydo bo'ladi. O'simliklarning manzaralilik holati ko'plab mezonlar bo'yicha baholanishi mumkin. Manzaralilik birinchi navbatda, gullashning davomiyligi va darajasi, gullarning rangi va hajmi, jozibadorligi va shoxlardagi mevalarni ushlab turish muddati, gullarning xushbo'yligi kabilar bilan baholanadi. Shu bilan birga, o'simliklarning hajmini, shaklini tuzilishi, barglarning kattaligi va rangini hisobga olish kerak. Obodonlashtirish maqsadlarida ekilgan daraxt va butalarning ko'chatxonolari, soliterlar, yog'och olish massivlari, xiyobonlar, tirik to'siqlar, chegaralar, bosketlarni baholash. Shuningdek, daraxtlar, butalarning alohida namunalarini baholash usullari ham mavjud [2].

O'simliklarni manzaraliligini baholashda ularning shox-shabbasi hamda barglari alohida o'rin tutadi. Barglarning ranglanishi (och, to'q, kulrang, zangori, zangori-yashil, yashil, kumush-oq va boshqalar) eng ko'zga tashlanadigan manzarali omil bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga foydalanilayotgan o'simliklarni sanitar holatini ham baholash mumkin [3].

Tahlil va natijalar. Tadqiqotlar davomida obyektlarni manzaralilik xususiyatlarini baholash N.I. Shtonda., X.J. Axmedova., A.I.Xalmurzaeva (2013) lar tomonidan ishlab chiqilgan metod asosida amalga oshirildi [3]. Mazkur metodda 11 ta ko'rsatkichlar asosida 2 dan 3 tagacha mezonlar kiritilgan. Ushbu uslubga ko'ra introdutsentlar 100 ballik shkala asosida 3 ta guruhga ajratilgan:

1. Yuqori manzarali 59-100 ball.
2. Manzarali 34-58 ball
3. Kam manzarali 34 ball.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan manzarali butalar ushbu mezonlar asosida baholandi hamda quyidagicha ball ko'rsatkichlariga ega bo'ldi (2 – jadval).

2 – jadval
O'simliklarning manzaralilik xususiyatlarini baholash

Ko'rsatkichlar	ballar	<i>Viburnum tinus</i> f. <i>stricta</i>	<i>Weigela florida</i> f. <i>bristol rubra</i>	<i>Deutzia scabra</i> f. <i>plena</i>	<i>Spiraea prunifolia</i> "Plena"	<i>Hibiscus syriacus</i> "Duc de Brabant"	<i>Physocarpus opulifolius</i> f. <i>diabola</i>	<i>Spiraea japonica</i> .	<i>Cotoneaster horizontalis</i>	<i>Cotoneaster adpressus</i>	<i>Cotoneaster dammeri</i>	<i>Hydrangea macrophylla</i>	<i>Symphoricarpos dorenbosa</i>
1. Butaning balandligi													
Baland (4-7m)	1												
O'rta o'lchamda (1,5-3m)	6	6	6	6	6	6	6						6
Kichik o'lchamda (0,5-1)	2							2	2	2	2	2	
2. Erkin o'sadigan shoxlarining(krona)shakli													
Keng tarqalgan	2							2					
Tik(yumaloq, oval va b)	6	6	6	6	6	6	6		6		6	6	6
Yotib o'suvchi	1									1			
3.Shoxlarning (krona) zichligi													
Zich	6			6									
O'rta zich	2	2	2		2	2	2	2	2	2	2	2	2
Ochiq	1												
4. Butalar shoxlari va tanasining rangi													
Yorqin (sariq, yorqin yashil)	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5
Yorqin bo'lmagan (kulrang jigarrang.)	2												
5. Mavsumda (bahor-kuz) barglarining rangi													
Yorqin	6	6	6	6	6	6		6	6	6	6	6	6
Barglar yashil paytida to'kilishi	4												
Jigarrang	2						2						
6.Gullash davrida ko'rinishi													
Yorqin rangli va yirik gulli	20		20			20							
Yorqin rangli va mayda gulli	14	14		14	14		14	14	14	14	14	14	14
Mayda, sezilmaydigan gulli	6												
7. Gullash davri davomiyligi													
1 oy va undan ortiq	16	16	16	16	16	16	16	16				16	16
2 hafta	10								10	10	10		
1 hafta	6												
8. Mevaning rangi, hajmi													
Urug'lar katta va yorqin rangda	14												
Urug'lar mayda va yorqin rangda	8	8							8	8	8		8
Urug'lar yorqinsiz rangda lekin hajmi me'yorida	6					6							
Urug'lar noaniq va quruq	2		2	2	2		2	2				2	
9. Mevaning butada saqlanib turish davri davomiyligi													
Meva yorqin va uzoq vaqt butada saqlanib turadi	6	6							6	6	6		6
Meva yorqin va qisqa vaqt butada saqlanib turadi	4												
Mevalar ko'rimsiz va uzoq(yoki qisqa)vaqt butada saqlanib turadi	2		2	2	2	2	2	2				2	
10. Barglarning davomiyligi													
Doim yashil	8	8							8	8	8		
Barg to'kuvchi	4		4	4	4	4	4	4				4	4
11.Butaning manzaraliligi davomiyligi													
Uzoq muddatli (20 va undan ortiq yil)	8					8			8				
O'rta muddatli (11-20 yil)	6	6	6	6	6		6	6		6	6	6	6
Qisqa muddatli (5-10 yil)	2												
Umumiy ball	100	83	75	73	69	81	65	61	75	68	73	65	79

Tadqiqot obyektlarining manzaraliligini baholashdan quyidagicha natijalar olindi: formalardan *Viburnum tinus* f. *stricta* 83, *Hibiscus syriacus* "Duc de Brabant" 81, *Weigela florida* f. *bristol rubra* 75, *Deutzia scabra* f. *plena* 73 *Spiraea prunifolia* f. *plena* 69, *Physocarpus opulifolius* f. *diabola* 65ball;

Tulardan esa *Symphoricarpos dorenbosa* 79, *Cotoneaster horizontalis* 75, *Cotoneaster dammeri* 73, *Cotoneaster adpressus* 68, *Hydrangea macrophylla* 65, *Spiraea japonica* 61ball bilan baholandi. Natijalarga ko'ra tadqiqot ishi uchun tanlangan ob'ektlarning barchasi yuqori manzarali (59-100 ball) deb baholandi.

Xulosa va takliflar. O'simliklarning umumiy manzaraliligi tashqi xususiyatlarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. O'simlikning o'lchami va shakli, barglarning tuzilishi va rangi, gullar va mevalarning kattaligi va rangi va boshqalar o'simlik o'sishi va rivojlanishi bilan bu belgilar ro'yxati odatda o'zgarishi mumkin. O'simlikda dastlabki (yosh) vaqtida barglari manzarali bo'lsa, o'simlik o'sib rivojlanishi bilan uning guli va mevalari manzaralilik kasb etadi. O'simlik o'rta yoshida barcha manzaralilik xususiyatiga ega bo'ladi. Yuqori manzarali deb baholangan tadqiqot obyektlari bo'lgan o'simliklarni Toshkent shahri ko'chalarini kokalamzorlashtirish ishlariga tavsiya etish mumkin. Manzarali buta ko'chatlarining yaxshi o'sishi va rivojlanishi uchun vegetatsiya davomida tuproqqa ishlov berish, sug'orish, o'g'itlash, daraxtlarning shox-shabbasiga shakl berish,

begona o'simliklarni olib tashlash, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash tadbirlarini o'z vaqtida olib borish lozim bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, introduksiya sharoitida ham manzarali butalarning tashqi morfologik belgilarning saqlanib qolishi ulardan kelgusida ko'kalamzorlashtirishda boshqa turdagi o'simliklar bilan ikkinchi yarus o'simligi sifatida foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Berdiev E.T. Manzarali daraxt-butа o'simliklar 100 kitob to'plami, 44-kitob 7-bet .Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021
2. Лапин П.И., Сиднева С.В. Оценка перспективности интродукции древесных растений по данным визуальных наблюдений // Опыт интродукции древесных растений. – М.: ГБС АН СССР, 1973. –С. 7- 80.
3. Штонда Н.И., Х.Ж. Ахмедова., А.И.Халмурзаева Оценка декоративности биоморфы кустарник. Интродукции растений: Достижения и перспективы.Тошкент-2013.c188-191.
4. Hamrayeva D.A Toshkent Botanika bog'iga introduksiya qilingan manzarali butalar fenologiyasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi Axborotnomasi 2022-5/1 112-116 b
5. Брошар Д. "Всё о деревьях и кустарниках". Москва 2016 202-203ст
6. Hamrayeva D.A. Introduksiya, vegetativnoye razmnojeniyе, cherenkovaniye. Polish science journal (ISSUE 6(39), 2021) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 2str 9-12
7. Штонда Н.И. К оценке перспективности некоторых интродуцированных в ботанический сад АН Уз ССР Североамериканских растений со средним сроком начала вегетации. // Интродукция и акклиматизация растений. В ип. 18. -Ташкент: Фан, 1974. - С. 29-32
8. Калмыкова А. Л, Заигралова Г. Н., О. В. Азарова, И. А. Мнечкина, А. Е. Агапова, А. В. Храменко Оценка декоративности древесных кустарников, используемых в озеленении г. Саратова Новые технологии / New technologies. 2018;(1):139-146.